



CHORTOQ SO'ZINING KELIB CHIQISHIGA OID ILMIY QARASHLAR

¹Raxmonjonova Guljahon

Termiz davlat universiteti talabasi

²Iroda Xidirova

Ilmiy rahbar: o'qituvchi

¹⁻²Termiz davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7157531>

ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 04th October 2022

Online: 07th October 2022

KEY WORDS

Chortoq, chor, chortaq, tog', to'rt, taxt, chodir, to'rt gumbaz.

ABSTRACT

ushbu maqolada joy nomlaridan O'zbekiston hududiga kiruvchi Chortoq tumani va shu nom bilan nomlanuvchi tog' tizmasining nomlanishi, bu boradagi lingvistik va etimologik qarashlar haqida gap boradi.

Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'-adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-biridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o'ylab chiqargan. Joy nomlari geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Geografik nom – toponim ham leksika, lekin biron obyektini ifodalaydigan termin hisoblanadi. Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlar tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning potikomponentli, ya'ni ko'p komponentlardan – tarkibiy qismlardan iborat bo'lishida, bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok eta olishida o'z aksini topadi. Toponimlarni yasashda shu til uchun xos bo'lgan lingvistik vositalardan (modellardan) foydalaniladi. Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pgina joy nomlari juda qadimiydir. Ibtidoiy yodgorliklarda qayd qilingan geografik nomlarni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan

solishtirib, tilning lug'at tarkibida, so'zlarning dastlabki shaklida ro'y bergan o'zgarishlarni bilib olishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida Chortoq tumani nomini olib qaraymiz (1).

Geografik nomlarni nuqsonsiz, to'g'ri yozish umumiy imloviy savodxonlikning uzviy bir qismidir. O'zbekiston hududidagi barcha geografik nomlar o'zbek tili imlosining amaldagi qoidalari asosida yoziladi. Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilining imlo qoidalarida ikki va undan ortiq so'zlar (murakkab turdosh otlar)dan iborat geografik nomlar qo'shib yoziladi, degan qoida bor. Chortoq geografik nomi esa: "Chor" tojikchadan tarjima qilinganda "to'rt", "toq" so'zi esa tog', ya'ni "to'rtta tog'" yoki "to'rt tomoni tog'" ma'nosidagi ot hisoblanib, bu so'z o'z-o'zidan son+ot ko'rinishidagi yasama nomni keltirib chiqaradi. Terminologiyada bunday atamalar gibril (chatishma) terminlar deyiladi, ya'ni bir qismi fors-tojikcha, bir qismi sof turkiycha (o'zbekcha).

Chortoq tumani Namangan viloyatida joylashgan bo'lib, 1950-yil 15-aprelda tashkil etilgan. G'arbdan Yangiqo'rg'on,



janubi sharqdan Uychi tumani, shimoli sharqdan Qirg'iston Respublikasi bilan chegaradosh. Shevasi o'zbek adabiy tilidan farqlidir. Chortoq so'zi o'z joylashgan o'rniga munosib tarzda atalgan (2). Bundan ko'rinadiki, hududiy jihatdan Chortoq tog'li jonada joylashgan

IX-X asrlarda yashagan arab sayyohlaridan Ibn Xordadbek va Istaxriy tomonidan bitilgan yozma manbalarida Chortoq so'zini "to'rt taxt" deb tilga olingan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" tarixiy asarida Chortoq so'ziga to'xtalib, bu so'z o'zaro aloqani mustahkamlash vositasi ekaniga ishora qiladi. Ya'ni bu yerda ikki davlat o'rtasidagi aloqani mustahkamlashni bildirish uchun chortoq so'zidan foydalanishgan.

U yerda yana bir o'rinda shunday jumla keltiriladi: "Muxammad Maxsu Mir edi. Kandahorni onga berib edi. Xiriga keltirganda ulug' to'y qilib yaxshi chortoq bog'ladi". Bu yerda Chortoq atamasi to'rt burchakli chodir, to'rt gumbaz ma'nolarini bildirishi ifoda etilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, tarixda "Chortoq" so'zi narsa oti bo'lib kelgan, ya'ni chodir o'rnida chortoq so'zidan foydalanilgan. Turdosh otlar ana shu yo'l bilan toponimlashadi, ya'ni toponimlarga aylanadi. Chortoq aholisining so'zlariga ko'ra avvallari Chortog' deb

atalgan bu o'lkani keyinchalik shevaga xoslanib Chortoq shaklida talaffuz qilingan. Bundan tashqari, hozirgi kunda ushbu so'zdan "Chortoq", "Chorvoq" tarzida ham foydalanilyapti, ya'ni atoqli toponimdan atoqli otga aylanib boryapti. Masalan, "Chorvoq" dam olish maskani yoki "Chortoq" madanli suvi. Yana ham kengroq yoritadigan bo'lsak, hozirgi kundagi dam olish maskanining "Chorvoq" nomi bilan atalishi bir toponomik nomdan yana bir geografik nomning hosil bo'lishiga yaqqol dalildir. Ya'ni hozirgi kunda havosi toza tog'yonbag'irlaridagi dam olish maskanlarini xalq ichida "Tog'ga boraman" deb emas, "Chorvoqqa boraman" tarzida foydalanilyapti. Bundan kelib chiqadiki, geografik joy nomi nuqtai nazaridan "Chorvoq"qa aylanadi. Shu tog'dan erib tushgan shifobaxsh qorsuvdan esa madanli suv ham huddi shu nom ostida chiqarilmoqda. Narsa-buyum nuqtai nazaridan suvga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, Chortog' toponim sifatida hozirgi o'zbek adabiy tilida o'z o'rniga ega. Ushbu geografik nom bugungi kunda jonli so'zlashuvda faol qo'llanadi. Shu sababdan uni atroflicha o'rganish hali tilshunoslarimiz oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi.

References:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.
2. Qorayev S. Toponomika. – T., 2006. 5-6-b.
3. Zaxiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T., 1960.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. I jild. – Toshkent, 2000. 151-b.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Chortoq_tumani